ANALYSIS OF ENHANCING THE BUSINESS ENVIRONMENT AND DEVELOPING SMALL BUSINESSES IN UZBEKISTAN BASED ON FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCE	2555
Abduvoxidov Behzod	
KORXONALARNI QO'SHIB YUBORISH JARAYONIDA FAOLIYATI TUGATILAYOTGAN KORXONALAR MOLIYAVIY HISOBOTINI MHXS ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	2567
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BAHOLANGAN MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2575
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
TA'MINOT ZANJIRI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA LOGISTIKA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI	2580
B.B. Djurayev	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING ASOSIY VA MOLIYAVIY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	2586
Sonayev Sanjar Nurmamatovich	
SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	2591
Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA YANGI BIZNES-MODELLARNI SHAKLLANTIRISH	2595
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIK VA ENERGETIK TRANSFORMATSIYA SHAROITIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	2599
Salomova Sarvinoz Salimovna	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI	2604
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI	2610
Uzoqova Feruza Baraka qizi	
TRANSFORMASIYALASH JARAYONIDA BANK DEPOZIT BAZASINING IQTISODIY AHAMIYATI	2615
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
ELEKTRON SAVDODA ISTE'MOLCHI ISHONCHI VA RAQAMLI TAJRIBANING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI.....	2621
Baymuradov Shoxrux Mahmudovich	
HUDUDDA TURISTIK DESTINATSIYALARNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA OVERTOURISM TA'SIRINI KAMAYTIRISH USULLARI.....	2626
Isrofilov Firdavs Ibrohim o'g'li	
FUNKSIONAL HISOBNI JORIY ETISH DAVR TALABIDIR.....	2635
B.Yu. Maxsudov	
STARTAPLAR VA INNOVATSIYALAR ORQALI KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2638
Eminchayev Baxodir Sadikovich	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO IFRS STANDARTLARIGA MOS TAHLILINI AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI (IFRS 9 VA IFRS 15 STANDARTLARINING JORIY ETILISHINING BANKLARNING FOYDA KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI).....	2641
Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINING IQTISODIY MOHIYATI VA BOSHQARUV XUSUSIYATLARI	2645
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2650
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	
STRATEGIC INTERNATIONALIZATION OF UNIVERSITIES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR GLOBAL RANKINGS.....	2656
Yunusova Shirin Adxamovna	



ЗНАЧЕНИЕ РЕФОРМ, ПРОВОДИМЫХ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	2662
Гафуров Анвар Базарбаевич	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT VOSITALARI EGALARINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	2667
Temirov Jonibek Abdumavlonovich	
ПРОБЛЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	2673
Саидакбаров Хусниддин Абдусаломович	
SUG'URTA VA DAVLAT BUDJETI, YOXUD O'ZARO MUNOSABATLARGA YANGICHA NAZAR.....	2682
Shennayev Xo'jayor Musurmanovich	
MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ZARURLIGI VA AHAMIYATI	2686
Madaminov In'omjon Ozodovich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2693
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARINI STRATEGIK BOSHQARISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	2700
O'ktamova Durdona Baxtiyor qizi, Mexmonov Sultonali Umaraliyevich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	2707
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	



YOSHLAR TADBIRKORLIGINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI



Mirzatov Baxtiyor Toxirovich

Namangan davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Email: Mirzatov1991@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi globallashtirish sharoitida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim omillaridan biri sifatida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Yosh avlodning tashabbuskorligi, kreativ fikrlashi, texnologik yangiliklarni tez o'zlashtirish qobiliyati hamda raqobatbardosh biznes g'oyalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy transformatsiya, tadbirkorlik, innovatsion loyihalar, boshqarish va rivojlantirish, bozor ehtiyojlarini qondirish, moliyaviy hisobot.

Abstract. This article examines the development of youth entrepreneurship as one of the key factors in ensuring the sustainability of economic growth, creating new jobs, and transitioning to an innovative economy in the context of globalization. Practical proposals are developed to enhance the initiative, creative thinking, ability to rapidly adopt technological innovations, and formation of competitive business ideas among the younger generation.

Key words: economic transformation, entrepreneurship, innovative projects, management and development, meeting market needs, financial reporting.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие молодежного предпринимательства как один из ключевых факторов обеспечения устойчивости экономического роста, создания новых рабочих мест и перехода к инновационной экономике в условиях глобализации. Разработаны практические предложения, направленные на развитие инициативности, креативного мышления, способности быстро осваивать технологические инновации и формировать конкурентоспособные бизнес-идеи у молодого поколения.

Ключевые слова: экономическая трансформация, предпринимательство, инновационные проекты, управление и развитие, удовлетворение потребностей рынка, финансовая отчетность.

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida aynan yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularning innovatsion loyihalarini rag'batlantirish hamda biznes muhitiga integratsiyasini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar tadbirkorligining nazariy asoslari — bu iqtisodiyotda yoshlarning mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritishiga ta'sir etuvchi omillarni, mexanizmlarni, institutsional shart-sharoitlarni hamda ularning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini tushuntirib beruvchi konseptual yondashuvlar majmuidir.

Tadqiqotlarga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, yoshlar tadbirkorligi — bu 18–30 yosh oralig'idagi yoshlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish jarayonini anglatadi. Ushbu tushuncha yoshlarning innovatsion g'oyalari, tashabbuskorligi, bilim va ko'nikmalariga asoslangan holda yangi



mahsulot yoki xizmat yaratishga, bozor ehtiyojlarini qondirishga, o'zini o'zi band qilishga hamda jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimiz olimlaridan A. Xolov yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash samaradorligi ko'plab omillarga bog'liqligini ta'kidlab, ushbu omillar sirasiga O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni kiritish mumkinligini¹ qayd etgan.

MDH mamlakatlari olimlari Ivanov G. G., Orlov S. L., Bajenov Yu. K. fikricha, rivojlangan mamlakatlarda universitetlar ilm-fan markazlari, yoshlarni ta'lim olish hamda tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash maskani sifatida muhim o'rin egallaydi. Yoshlar jamiyatning eng faol qismi bo'lib, mamlakat iqtisodiy hayotida eng samarali ishtirok eta oladigan qatlam hisoblanadi².

Haqiqatan ham, yosh avlod jamiyatning eng faol va iqtisodiy jarayonlarda eng yuqori samaradorlik bilan ishtirok etishga qodir qatlamini tashkil etadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalari yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarishda, ularni yangi tashabbuslarga undashda hamda zamonaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz olimlaridan N. Shoaxmedova ham o'z qarashlarida yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlashda ta'lim tizimi muhim rol o'ynashini ta'kidlab, O'zbekistonda tadbirkorlik asoslari, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, biznes-rejalar tuzish kabi mavzularni o'z ichiga olgan maxsus kurslar va dasturlar joriy etilayotganini qayd etadi. Shuningdek, yoshlar orasida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish maqsadida turli tanlovlar, seminarlar va master-klasslar tashkil etilayotganini ko'rsatib o'tadi³.

Zamonaviy yosh tadbirkor — bu 35 yoshgacha bo'lgan hamda kam sonli xodimlarga ega kichik biznes subyekti hisoblanadi. Yosh tadbirkorlarning o'ziga xos xususiyati ularning tavakkal qilishga va o'z biznesiga innovatsiyalarni joriy etishga moyilligidir. Yosh tadbirkorlar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning 70 % dan ortig'i o'z biznesini 25 yoshga to'lmasdan oldin boshlagan.⁴

MDH mamlakatlari olimlari Malikov R. I., Komarov A. G., Bogdanova S. Yu. ta'kidlashicha, yoshlar tadbirkorligining shakllanishi ko'plab o'zaro bog'liq omillar majmuiga tayanadi⁵. Mazkur jarayonning samaradorligi nafaqat iqtisodiy resurslarning mavjudligiga, balki yoshlarning ijtimoiy faolligi, institutsional qo'llab-quvvatlash darajasi hamda bozor infratuzilmasining rivojlanganligiga bevosita bog'liqdir. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda uchta asosiy tarkibiy omil — ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional omillar kompleks ta'sir ko'rsatadi. Har bir omil yoshlarning biznesga kirishish motivatsiyasini shakllantirish, resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish hamda tadbirkorlik muhiti barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy ma'lumotlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar hamda yetakchi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari asosida to'plandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va tizimli yondashuv usullari orqali tahlil qilinib, gudvill va xariddan kelgan foydaning buxgalteriya hisobida aks ettirilishining ilmiy-amaliy jihatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy omillar yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishi va tayyorgarligini belgilab beruvchi asosiy psixologik hamda ijtimoiy ko'rsatkichlar sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy omillar esa bozor sharoitlari, resurslar, infratuzilma va hududiy rivojlanish darajasi orqali tadbirkorlikning real imkoniyatlarini shakllantiradi. Institutsional omillar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, normativ-huquqiy baza, startap infratuzilmasi hamda ta'lim tizimi orqali yoshlar uchun qulay tadbirkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Quyida yoshlar tadbirkorligini tashkil etishga ta'sir qiluvchi ushbu omillar majmui chizma ko'rinishida keltirilgan (1-rasm).

- 1 A.X. Холов. Ўзбекистон ёшларида тadbirkorlik ижтимоий масъулиятини ошириш. Ўқув қўлланма/ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси. –Т.: Академия. 2014 йил. Б-135.
- 2 Иванов Г. Г., Орлов С. Л., Баженов Ю. К. Молодежное предпринимательство: современные реалии и взгляд в будущее // Вестник экономики, права и социологии. — 2014. — № 4. — С. 31–34.
- 3 Шоахмедова Н. Х. Бизнеснинг ижтимоий масъулияти концепцияси доирасида ёшлар тadbirkorлиги // Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. Q— 2024. — Б-899
- 4 Маликов Р. И., Комаров А. Г., Богданова С. Ю. Современные тенденции формирования организационной культуры молодежного предпринимательства // Проблемы теории и практики предпринимательства. — 2014. — С. 172–175.
- 5 Маликов Р. И., Комаров А. Г., Богданова С. Ю. Современные тенденции формирования организационной культуры молодежного предпринимательства // Проблемы теории и практики предпринимательства. — 2014. — С. 172–175.



1-rasm. Yoshlar tadbirkorligi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar kompleksining ilmiy asoslari

Rasmda yoshlar tadbirkorligini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar majmui tizimli yondashuv asosida guruhlangan. Ushbu modelda omillar uchta asosiy blok — ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional kategoriyalar orqali ifodalangan bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'langan holda yoshlar tadbirkorligining rivojlanish jarayonini belgilab beradi.

Ijtimoiy omillar yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga kirishish motivatsiyasi, oilaviy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy kapital, ta'lim sifati hamda jamiyatning tadbirkorlikka bo'lgan munosabati kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu omillar shaxsning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligini shakllantiradi, tadbirkorlikni boshlash istagi va unga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi. Ayniqsa, oila muhiti, ta'lim sifati va jamiyatda tadbirkorlik madaniyatining mavjudligi yoshlarning biznesga kirishishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy omillar esa yosh tadbirkorlar uchun zarur bo'lgan moddiy va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, hududiy iqtisodiy sharoitlar hamda mavjud preferensiyalar bilan belgilanadi. Ularning har biri tadbirkorlik jarayonida real imkoniyatlar va cheklolarni yuzaga chiqaradi. Masalan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi yoki bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi yoshlarning startap loyihalarini amalga oshirishda asosiy to'siq bo'lishi mumkin. Aksincha, hududiy iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi va davlat tomonidan taqdim etiladigan iqtisodiy imtiyozlar yangi biznes g'oyalarining shakllanishiga qulay sharoit yaratadi.

Institutsional omillar esa yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi rasmiy tizimlar va davlat institutlarining faoliyati bilan bog'liqdir. Biznes-inkubatorlar, texnoparklar, akselelatorlar hamda davlat dasturlari yoshlar uchun zarur tashkiliy, huquqiy va axborot infratuzilmasini shakllantiradi. Shuningdek, davlat tomonidan taqdim etiladigan kafolatlar, kreditlar, grantlar hamda kasb-hunar ta'limi tizimining rivojlanishi yoshlarning biznesga kirishish imkoniyatini kengaytiradi. Institutsional omillarning barqaror va samarali faoliyati tadbirkorlik muhitining barqarorligi va qulayligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlik fenomeni iqtisodiy tafakkur tarixida turli davrlarda shakllangan nazariy konsepsiyalar orqali izohlanib kelgan. Klassik iqtisodiyot vakillari risk, ishlab chiqarish omillarini uyg'unlashtirish hamda bozor noaniqligi kabi tushunchalarni tadbirkorlikning asosiy belgilari sifatida e'tirof etgan bo'lsalar, keyingi davr nazariyalari tadbirkorni innovatsiya yaratuvchi, bozor imkoniyatlarini ilg'ovchi hamda iqtisodiy dinamikani shakllantiruvchi yetakchi kuch sifatida baholaydi. Shu tariqa, tadbirkorlikning nazariy asoslari ko'p qirrali bo'lib, ularning har biri zamonaviy iqtisodiyotni anglashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ushbu nazariy qarashlarning ahamiyati, ayniqsa, yoshlar tadbirkorligi kontekstida yanada ortib bormoqda. Chunki yoshlar innovatsion fikrlash, raqamli texnologiyalarni tez o'zlashtirish, bozor signallariga sezgirlik, yangilikka ochiqlik hamda riskni qabul qilishga tayyorlik kabi xususiyatlarga ega bo'lib, klassik va zamonaviy nazariyalarda ta'kidlangan tadbirkorlik fazilatlarining eng faol namoyondalaridan hisoblanadi. Shu ma'noda, tadbirkorlik haqidagi ilmiy yondashuvlarni yoshlar faoliyati bilan bog'lash ularning iqtisodiyotdagi o'rnini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Tadbirkorlikni nazariy yondashuvlari va ularning yoshlar tadbirkorligini tashkil etishdagi ahamiyati⁶

№	Qaysi olim	Tadbirkorlik bo'yicha nazariy qarashlari	Yoshlar tadbirkorligiga hamohangligi
1	R. Kantillon	Tadbirkorni bozor noaniqligi sharoitida riskni o'z zimmasiga oluvchi iqtisodiy agent sifatida ta'riflagan.	Yoshlar riskga moyilligi yuqori bo'lgan guruh hisoblanadi. Ular barqaror daromaddan ko'ra tajriba oltirishga ko'proq intiladi.
2	J. Sey	Tadbirkorni ishlab chiqarish omillari — mehnat, kapital va yer resurslarini birlashtiruvchi hamda ularni bozorga moslashtiruvchi shaxs sifatida talqin qilgan.	Yoshlar resurslarni tez birlashtira oladi: IT-bilimlar, kreativlik, kichik mablag' va ijtimoiy kapital. Ko'plab yosh tadbirkorlar "kichik resurs — katta natija" modelini amalda qo'llay oladi.
3	J. Shumpeter	Tadbirkorni innovatsiya yaratish orqali iqtisodiy taraqqiyotga turtki beruvchi shaxs sifatida baholagan.	Yoshlar startaplarning 80 % innovatsiya va texnologiya bilan bog'liq. Yoshlarning kreativ fikrlashi Shumpeterning "yangilik yaratish" tamoyiliga to'liq mos keladi.
4	P. Drukker	Tadbirkorlikni imkoniyatni amaliy natijaga aylantira olish qobiliyati sifatida belgilaydi. Unga ko'ra, tadbirkorlik alohida iste'dod emas, balki o'rganiladigan amaliy faoliyatdir.	Yoshlar o'qish, kurslar va treninglar orqali tez ko'nikma hosil qiladi hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tez tatbiq eta oladi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan nazariy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik mohiyati tarixiy davrlar davomida turli ilmiy maktablar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, ularning barchasida umumiy bir tamoyil mavjud — tadbirkor iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisi bo'lib, noaniqlik va o'zgaruvchan sharoitlarda qiymat yaratishga intiluvchi subyektdir. Har bir olim tadbirkorlikning o'ziga xos jihatini yoritgan: Kantillon riskni qabul qilishni asosiy omil sifatida ko'rsatgan bo'lsa, Sey resurslarni birlashtirish jarayoniga e'tibor qaratgan, Shumpeter tadbirkorni yangilik yaratuvchi kuch sifatida baholagan, Drukker esa tadbirkorlikni amaliy natijaga yo'naltirilgan faoliyat sifatida talqin qilgan. Mazkur nazariy yondashuvlar zamonaviy yoshlar tadbirkorligi bilan bevosita uyg'unlik kasb etadi.

Mualliflik yondashuvidan kelib chiqib aytish mumkinki, yoshlar tadbirkorligini samarali tashkil etish — bu 18–30 yoshdagi shaxslarning innovatsion g'oyalarini iqtisodiy qiymatga aylantirish jarayonini ilmiy asoslangan rejalashtirish, resurslar bilan ta'minlash, institutsional qo'llab-quvvatlash hamda bozor sharoitlariga moslashuvchan boshqaruv mexanizmlari orqali barqaror rivojlantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Umuman olganda, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda nazariy asoslarga tayanadigan bo'lsak, O. V. Andreeva va A. A. Suxoveevalar xulosasiga ko'ra, "yoshlar tadbirkorligi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratadigan maxsus sharoitlarni shakllantirish zarur. Bu esa barcha darajadagi hukumatlarda sanoat, ijtimoiy va ta'lim sohalarini qamrab oluvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadi".

Yoshlar bandligini ta'minlashning global muammolarini bartaraf etishda ushbu soha bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Jumladan, I. Bogdanova o'z ilmiy tadqiqotini mintaqaviy darajada yoshlar turizm tadbirkorligini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlagan. Tadqiqotda turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, yosh tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini kuchaytirish va ularni qo'llab-quvvatlovchi tizimni shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuv ishlab chiqilgan.

Ceptuneanu, S. I. va Ceptuneanu, E. G. ilmiy maqolasida Yevropa Ittifoqida yosh tadbirkorlarning duch keladigan asosiy to'siqlar — ijtimoiy-madaniy cheklovlar, ta'lim sifati pastligi, ish tajribasining yetishmasligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi hamda bozor to'siqlari tahlil qilingan. Mualliflar Yevropada tadbirkorlik salohiyati mavjud bo'lsa-da, amaliy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligini ta'kidlaydilar. Muammolarni bartaraf etish uchun tadbirkorlik ta'limini kuchaytirish, moliyalashtirish jarayonlarini yengillashtirish, inkubatorlar va mentorlik tizimini rivojlantirish taklif etiladi⁷.

Yoshlar auditoriyasining iqtisodiy xulq-atvorini Shumpeter tomonidan shakllantirilgan "yangilik tashuvchisi" — innovator obrazi orqali izohlash mumkin. Innovatsiya iqtisodiy tizimdagi mavjud muvozanatni buzib, uning qayta tiklanishi jarayonida yangi kombinatsiyalarni yuzaga keltiradi. Ushbu yondashuv aynan yoshlar tadbirkorligiga mos keladi, chunki yoshlar guruhi iqtisodiy faolligi an'anaviy biznes modellariga bog'lanib qolmay, yangi texnologiyalar, raqamli platformalar, kreativ iqtisodiyot va moslashuvchan bozor shakllariga

6 Muallif ishlanmasi

7 Ceptuneanu, S. I., & Ceptuneanu, E. G. Challenges and barriers of European young entrepreneurs. Challenges and barriers of european young entrepreneurs management research and practice vol. 7 issue 3 (2015) pp: 34-58.



tayanadi. Bunday xususiyatlar Shumpeter ta'riflagan innovatsion kombinatsiyalarni real amaliyotda namoyon etuvchi zamonaviy mexanizmdir.

Shuningdek, yoshlar resurslar va tajriba yetishmasligini kompensatsiya qiluvchi o'ziga xos "novatorlik energiyasi"ga ega bo'ladi. Bu energiya ularga yuqori risk sharoitida ham yangi g'oyalarni sinab ko'rish, bozordagi bo'sh segmentlarni aniqlash va iqtisodiy imkoniyatlarni tezda baholash imkonini beradi. Shumpeter tadbirkorlikni aynan shunday — mavjud holatni buzib, yangilik yaratish orqali tizimni oldinga siljituvchi kuch sifatida ko'radi.

Iqtisodiy rivojlanishning dinamik tabiatiga oid konsepsiya yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, iqtisodiy tizimda yangilanish asosan kichik, moslashuvchan va yangi tashkil etilgan subyektlar orqali amalga oshadi. Bu esa yoshlar startaplarining makroiqtisodiy rivojlanishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi. Bugungi kunda elektron tijorat, IT-startaplar, fintech, kreativ sanoat va raqamli xizmatlar kabi yo'nalishlarda aynan yoshlar tomonidan ilgari surilayotgan innovatsion tashabbuslar bozor strukturasining qayta shakllanishiga olib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan, yoshlar tadbirkorligini Shumpeter nazariyasining amaliy ko'rinishi sifatida baholash mumkin, chunki yoshlar innovatsion faoliyatni faollashtiruvchi, iqtisodiy tizimga yangi impuls beruvchi va raqobat muhitini kuchaytiruvchi subyektlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv yoshlar tadbirkorligini nafaqat bandlik va ijtimoiy faollikni oshiruvchi omil, balki iqtisodiy modernizatsiyaning strategik mexanizmi sifatida ko'rishga imkon beradi.

Yoshlar tadbirkorligi zamonaviy iqtisodiy tizimning muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, u nafaqat bandlik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi, balki iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan yangilash va diversifikatsiya qilish jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar tomonidan tashkil etilgan startaplar innovatsion g'oyalar, yangi texnologiyalar va bozor ehtiyojlariga tez moslasha oladigan boshqaruv uslublari bilan ajralib turadi. Bu esa iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi tovar va xizmatlar ishlab chiqish hamda raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan, yoshlar tadbirkorligi jamiyatda tashabbuskorlik, mas'uliyat va o'zini o'zi band qilish madaniyatini shakllantiradi. Yosh avlodning iqtisodiy jarayonlarda faol ishtiroki ularning ijtimoiy moslashuv darajasini oshiradi, iqtisodiy mustaqilligini kuchaytiradi va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun keng maydon yaratadi. Shu bilan birga, yosh tadbirkorlar tomonidan yaratilgan yangi ish o'rinlari mehnat bozorida bosimni kamaytirib, ayniqsa yuqori ishsizlik darajasi mavjud hududlarda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Yoshlar tadbirkorligi iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznesning tarkibiy yangilanishga bo'lgan tabiiy moyilligi, texnologiyalarni tez o'zlashtirishi va bozor talablariga moslasha olishi iqtisodiy tizimning innovatsion samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan qaralganda, yosh tadbirkorlar iqtisodiy ekotizimning yangilanish mexanizmini shakllantiradi: yangi bozor segmentlarini ochadi, mavjud sohalarda raqobatni kuchaytiradi va iqtisodiyotga yangi kapital hamda yangi yondashuvlarni jalb etadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, yoshlar tadbirkorligi hududiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yosh tadbirkorlar ko'pincha o'z hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqur bilgan holda, lokal ehtiyojlarga mos yechimlar ishlab chiqadi. Natijada, mahalliy infratuzilmalar faollashadi, xizmatlar sifati yaxshilanadi va hududlararo iqtisodiy tafovutlar qisqaradi.

Umuman olganda, yoshlar tadbirkorligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati uning iqtisodiy o'sish, ijtimoiy faollik, innovatsion salohiyat va hududiy rivojlanish jarayonlariga qo'shayotgan kompleks hissasi bilan belgilanadi. Shu sababli, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash davlatning strategik rivojlanish siyosatida alohida o'rin tutishi lozim.

Xalqaro tajribani o'rganish yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning nazariy asoslarini yanada boyitadi, chunki har bir mamlakat o'ziga xos iqtisodiy, institutsional va madaniy sharoitdan kelib chiqib turli mexanizmlarni shakllantirgan. Rivojlangan davlatlar tajribasida yoshlar tadbirkorligiga yondashuv, avvalo, iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi va innovatsion salohiyatni yuzaga chiqaruvchi strategik yo'nalish sifatida talqin etiladi. Shu bois, ushbu tajribalarni tahlil qilish umumiy nazariy modelni shakllantirish uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi davlatlarida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning asosiy tamoyili ta'lim, moliya va mentorlik xizmatlarini yagona ekotizimga birlashtirishdan iboratdir. Ta'lim tizimi yoshlarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlaydi, balki amaliy loyihalar, real biznes vaziyatlari hamda startap muhitiga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu yondashuv yoshlarning iqtisodiy xulq-atvorini tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltiruvchi kuchli motivatsion omil sifatida namoyon bo'ladi.



Osiyo davlatlari, xususan Janubiy Koreya va Singapur tajribasi davlatning faol strategik pozitsiyasiga asoslanadi. Mazkur mamlakatlarda hukumat yoshlar uchun alohida grantlar, imtiyozli kreditlar, boshlang'ich kapital jamg'armalari, biznes-inkubatorlar va texnoparklar orqali startaplar uchun xavfsiz va barqaror muhit yaratadi. Natijada yoshlar uchun risk darajasi kamayadi va ular innovatsion faoliyatga dadil kirishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu tajribalardan kelib chiqadigan nazariy xulosa shundan iboratki, yoshlar tadbirkorligining rivojlanishi ko'p hollarda makroiqtisodiy siyosatning sifatiga hamda moliyaviy va institutsional resurslarga kirish imkoniyatining kengligiga bevosita bog'liqdir. Nazariy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, yoshlar tadbirkorligi shaxsiy motivatsiya, ta'lim sifati, innovatsion fikrlash, ijtimoiy-madaniy omillar, institutsional sharoitlar, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati hamda tadbirkorlik ekotizimining rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog'liq.

Shu bois yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishni faqat iqtisodiy jarayon sifatida baholash yetarli emas, balki uni ijtimoiy, institutsional va innovatsion omillar uyg'unligida shakllanadigan kompleks tizim sifatida ko'rib chiqish zarur. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, yoshlar tadbirkorligi iqtisodiy o'sishning mustaqil drayveri bo'lib, innovatsion taraqqiyot, bandlikni ta'minlash, hududiy rivojlanish va iqtisodiy diversifikatsiyaning muhim strategik omili sifatida qaralishi lozim.

Shu sababli, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan siyosat va mexanizmlar ilmiy-nazariy asoslar bilan uyg'un holda ishlab chiqilganda, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. X. Холов. Ўзбекистон ёшларида тadbirkorlik ижтимоий масъулиятини ошириш. Ўқув қўлланма / Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси. – Т.: Akademiya, 2014 йил. – Б. 135.
2. Иванов Г. Г., Орлов С. Л., Баженов Ю. К. Молодежное предпринимательство: современные реалии и взгляд в будущее // Вестник экономики, права и социологии. – 2014. – № 4. – С. 31–34.
3. Шоахмедова Н. Х. Бизнеснинг ижтимоий масъулияти концепцияси доирасида ёшлар тadbirkorлиги // Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. – Q., 2024. – Б. 899.
4. Маликов Р. И., Комаров А. Г., Богданова С. Ю. Современные тенденции формирования организационной культуры молодежного предпринимательства // Проблемы теории и практики предпринимательства. – 2014. – С. 172–175.
5. Андреева О. В., Суховеева А. А. Молодежное предпринимательство и эффективные инструменты его развития // CITISE. – 2020. – № 2 (24). – С. 385–393.
6. Богданова И. М. Государственное регулирование и инфраструктурное обеспечение региональной системы молодежного предпринимательства в сфере туризма : автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Санкт-Петербург, 2021. – 26 с.
7. Ceptureanu, S. I., & Ceptureanu, E. G. Challenges and barriers of European young entrepreneurs // Management Research and Practice. – Vol. 7, Issue 3 (2015). – Pp. 34–58.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
